



TA'LIMNING TEXNOGEN SIVILIZATSIYA DAVRIDA MIGRATSIYASINING IJOBIY VA SALBIY JIHATLARI

Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich

Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya. Bugungi insoniyatning texnologik taraqqiyoti insoniyatning o'z yashash manzilgohlarini belgilashda va o'zgartirib borishiga olib kelmoqda. Demak, bu ikki jarayon ham o'zaro ta'sirlashuvi ortidan har biri alohida rivojlanib bormoqda. Shu sababidan dunyo hamjamiyatida ba'zi bir cheklovlar qo'yish orqali, texnologiyaning onglilashib borishini nazoratga olishga harakatlarni ham kuzatish mumkin. Chunki, texnologik taraqqiyot insonning biologik faolligini cheklash bilan birga borliqdagi faol liderlik rolga ham putur yatkazishi mumkinligi bo'yicha qo'rquvlar mavjud. Bugungi odamlarning ko'chishi texnologik taraqqiy etgan hududlarga yo'nalgan bo'lsa, kelajakda undan qochish bilan xarakterlanishi mumkin. Maqolada muallifning shu doirasidagi fikrlari bayon etiladi.

Kalit so'z: emigratsiya, imigratsiya, aholi migratsiyasi, texnologik rivojlanish, migratsion harakat, sivilizatsiya, texnoetik madaniyat, kiberxavfsizlik.

Ushbu maqoladagi asosiy muammo insoniyatning o'sish sur'atlariga mutanosib ravishda taraqqiy etayotgan texnologik rivojlanish va uning insoniyat hayotiga keng ko'lamda ta'sir etib borishi bilan bog'liq. Chunki texnologiya bugungi kunda sanoatning asosiy sohalaridan inson omilini jadallik bilan qisqartirib bormoqda. Shundan kelib chiqib, insoniyatning migratsion harakatini ham muqarrar qilib qo'ymoqda. Negaki sanoatning texnologiyalashuvi ortidan odamlar zavodlarga endi kerak bo'lmay qolishi bilan birga, avvaldan shug'ullanib kelgan ko'pchilik kasblaridan borgan sari maxrum etib borilmoqda. Soha mutaxassislari hattoki, ayrim kasblarni bugungi kunda tanlamaslik kerak deya uqtirishmoqda. Ular kelajakda texnologik taraqqiyot tufayli kerak bo'lmay qolishi muki¹.

Shunday sharoitda, texnologik yutuqlardan foydalanish, uni jadallashtirib borish va uning axloqiy jihatlariga e'tibor berish ko'zda tutiladi. Sivilizatsiya - Moddiy va ma'naviy madaniyatning ijtimoiy taraqqiyotida erishilgan muayyan bosqichi sifatida qaralar ekan, u o'z navbatida madaniyat so'zining sinonimi hisoblanadi. Insoniyat doimiy ravishda qaysidir

¹ https://uz.tgstat.com/chat/@magistratura_qabul2020/183608



yutuqlarga erishib kelgan va ushbu yutuqlar jamiyatning muvaffaqiyati sifatida baholanishi, sivilizatsiyaning yaratilishi sifatida qabul qilinadi. Texnogen sivilizatsiya – insoniyat faoliyati natijasi sifatida texnologiya taraqqiyotida erishilgan muayyan bosqichidagi yutuqlarga aytiladi. Insoniyatning bu borada erishayotgan natijalari hayratlanarli bo‘lishi bilan birga, fanda unga falsafiy muammo sifatida qarash ham shakllanib bormoqda. Texnologik yutuqlarni yanada olg‘a siljitish mumkin bo‘lgan bir vaziyatda, uning axloqiy jihatlarini, insoniyat taqdiriga uning kelajagiga ta’sirini hisobga olgan holda yondashuvni talab etilmoqda. Buning ijobiy tarafdin beqiyos yutuqlar, yengilliklar, samaradorlik tuhfa etishini inobatga olish bilan birga yuqoridagi muammo keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan jihatlarini inobatga olish zarur. Yulo Vooglayd ta’limda texnologiyalashuv haqida so‘z yuritib, “markazida elektron qurilmalardan foydalanish bo‘lgan o‘quv jarayoni butun ta’lim va tarbiyalash tizimini tubdan o‘zgartirdi. Bu o‘zgarishlar qanday natijalar-u oqibatlariga olib kelishi hozircha ma’lum emas. Elektron qurilmalar kuchli o‘rganish vositasi bo‘lib, ulardan kelishi mumkin bo‘lgan ta’sirni qancha kam bashorat qilib hisobga olsak, ular shunchalik xavfli bo‘ladi”² deya xulosa beradi. Balki shuning uchun ham jamiyatda ushbu qurilmalardan foydalanish madaniyatining shakllanishiga ko‘proq e’tibor qaratish zarurdir. “Texnoetik madaniyat” – bu texnika va texnologiyani yaratish va foydalanishda axloqiy mas’uliyatni shakllantirish, unga axloqiy baho beradigan madaniyat turi hisoblanadi³.

Texnogen sivilizatsiya insoniyatning ilmiy yuksalib borishiga olib kelmoqda. Bu esa, ishchi kuchiga nisbatan talabni kamaytirishi bilan birga, yangi va zamonaviy kasblarning shakllanishini ham yuzaga keltiradi. Muhandis dasturchi, robototexnik, kiberxavfsizlik bo‘yicha mutaxassis, blokchayn- muhandisi, barqaror energiya muhandisi⁴ kabi sohalarga ehtiyoj oshib borishi haqida xulosalar mavjud bo‘lsa, kopirayterlar (60%), dizaynerlar (54%), buxgalterlar (40%), tahlilchilar (35%), marketologlar (30%), kuryerlar (28%) va taksi haydovchilari - 26%, logistiklar, sotsiologlar, dasturchilar, moliyachilar, kadrlar bo‘yicha mutaxassislar, shuningdek, jurnalistlar, psixologlar, o‘qituvchilar va hatto

² Юло Вооглайд Ватандошлик дастури [Матн]: илмий-оммабон / — Тошкент: “Azon kitoblari”, 2023. — 203 б.

³ Alimjonova G.I. Oliy texnik ta’lim muassasalari talabalarining texnoetik madaniyatini rivojlantirish mexanizmi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Farg‘ona. 2023 yil. – 56 b.

⁴ https://uz.tgstat.com/ru/chat/@magistratura_qabul2020/183608



shifokorlar oldida turgan vazifalarni 22 foizgacha aniq bajarishi mumkinligi⁵ bois ushbu kasblarga nisbatan ham talabning kamayib borishiga olib keladi, degan farazlar mavjud. Shundan kelib chiqib, odamlar o'zlarining kelajak uchun tanlayotgan kasblarini doimiy yashash hududida keyinchalik ham qanchalik kerak bo'lib qolishini hisobga olgan holda tanlashlari maqsadga muvofiqdir. Qaysidir kasbni tanlash bilan mutaxassisning, o'zini shu jamiyatning bir vakiliga aylantiradi va shaxs sifatida siyosiylashib boradi. Agar texnologik taraqqiyotni kuzatadigan bo'lsak, u odamlarni qaysidir hududlarga chorlashi bilan birga, inson omilining kamayib borishi orqali qaysidir yuqorida sanab o'tilgan kasblarni kelajakda keraksizga aylantiradi, jamiyatdan begonalashtiradi va komfort hududlariga qamaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, texnologik taraqqiyotning migratsiyaga va aholining ko'chib borishi va kelishiga bundan keyingi davrda kuchli ta'sir etishini kuzatish mumkin. Lekin, bugungi kunda dunyo bo'ylab ko'chib yuruvchi muhojirlar soni ortib bormoqda. Odamlar tug'ilgan joylarida yashashni xohlashmaydigan bo'lib borishmoqda, ular hayot kechirish uchun yaxshi sharoitlarni qidirmoqdalar. Hukumatlar ham ushbu vaziyatdan kelib chiqib yangi muammolar uchun yechim qidirishmoqda: ba'zilarida ishchi kuchi, aholi yetishmaydi, boshqalari esa, aksincha, aholi ko'p. Demografik muvozanatni saqlash va mehnat bozoridagi vaziyatni nazorat qilish uchun migratsiya nima ekanligini, uning sabablari va qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligini bilish kerak. Lekin ushbu masalaning asosan ijobiy jihat bilan qabul qiluvchi jamiyatga ta'siri haqida to'xtalib o'tilgan edi. Demak, migratsiya hukumat va jamiyatlarda pirovardida asosan ijobiy natijasi bilan ahamiyatli hisoblanadi.

Umuman olganda, jarayonga ta'sir qiluvchi omillarni chaqiruvchi va chiqaruvchi omillarga bo'lish mumkin. Bunda odamlar yaxshi sharoitlarni izlab, yomon sharoitdan qochib begona hududlarga borib qolishadi. Chiqaruvchi omillarga, qurolli to'qnashuvlar, urushlar, ekologik ofatlar kiradi. Bunday hollarda, odamlarda shunchaki boshqa tanlovlari yo'q holatda – majburiy muhojirlar o'z hayotlarini va sog'lig'ini saqlab qolishga qaror qilishadi.

⁵ <https://yoshlarovozi.uz/oz/news/suniy-intellekt->



Odamlarni ko‘chishga majbur qiladigan asosiy omillar iqtisodiy omillar bo‘lishi bilan birga texnologiyalashuv ham hisoblanadi. Aksariyat muhojirlar yuqori maoshli ish topish uchun boshqa mintaqaga yoki mamlakatlarga sayohat qilishadi. Ammo bu odamlarning ushbu maqsadni ko‘zlab ko‘chaga chiqishining yagona sababi emas. Ularning aksariyati nafaqat pul ishlashni, balki yangi manzilgohlarida doimiy qolishni ham ko‘zlashadi. Majburiy migratsiya ular uchun albatta turli afzalliklarni taqdim etadi.

Sof ekologiya, yuqori yashash sharoitlari, ishonchli ta‘minlangan jamoat xavfsizligi, siyosiy erkinliklar mavjudligi, sifatli ta‘lim, texnologiyalashuv, infratuzilmaga ega hududlarning barchasi migrantlarni o‘ziga jalb qilishi tabiiy va ular asosan mana shunday hududlarga qarab intiladilar.

Mamlakat yoki ma‘lum hududiy birlik ichidagi qishloqdan shaharlarga, bir mintaqadan boshqasiga ko‘chish ichki migratsiya deb ataladi. Masalan, mamlakatimiz miqyosida kuzatiluvchi harakat jarayoni: qishloqlardan - tuman markazlariga, tumanlardan - viloyat markazlariga, viloyatlardan – poytaxtga intilish. Bundan hulosasi shunday bo‘ladiki, mamlakatdagi hududlarning texnologik infratuzilmasi, ichki iqtisodiy sharoiti va resurslarning o‘ta nomutanosib taqsimlanganligidan dalolat beradi. Bu birinchi navbatda salbiy xabar berishi bilan birga, mamlakatning markaziy qismlarini katta sur‘atlar bilan taraqqiyotiga olib keladi.

Xulosa qilib aytganda, texnologik taraqqiyot insonning biologik faolligini cheklash bilan birga borliqdagi faol liderlik roliga ham putur yatkazishi mumkinligi bo‘yicha qo‘rquvlar mavjud. Bugungi odamlarning ko‘chishi texnologik taraqqiy etgan hududlarga yo‘nalgan bo‘lsa, kelajakda undan qochish bilan xarakterlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://uz.tgstat.com/chat/@magistratura_qabul2020/183608
2. Юло Вооглайд Ватандошлик дастури [Матн]: илмий-оммабон / — Тошкент: “Azon kitoblari”, 2023. — 203 б.
3. Alimjonova G.I. Oliy texnik ta‘lim muassasalari talabalarining texnoetik madaniyatini rivojlantirish mexanizmi. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Farg‘ona. 2023 yil. – 56 b.



4. https://uz.tgstat.com/ru/chat/@magistratura_qabul2020/183608

5. <https://yoshlarovozi.uz/oz/news/suniy-intellekt->

6. Mansurov Abdulaziz Akbarjonovich. (2023). MIGRATSIYA JARAYONINING TAHLILI VA MUAMMOLI JIHATLARI. *IQRO*, 2(1), 628–631. Retrieved from <http://wordlyknowledge.uz/index.php/iqro/article/view/386>

7. Akbarjonovich M. A. MIGRATSIYANI KELTIRIB CHIQUARUVCHI SABABLAR //ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ. – 2023. – Т. 24. – №. 2. – С. 32-34.

8. Akbarjonovich, M. A. (2023). Historical Analysis of Population Migration. *International Journal on Orange Technologies*, 5(4), 68-70. Retrieved from <https://journals.researchparks.org/index.php/IJOT/article/view/4292> More Citation Formats

